BOKSCHILARNING MUSOBAQA JARAYONIDAGI FAOLLIK KO‘RSATKICHLARINI BAHOLASH VA TAHLIL QILISH MASALALARI

S.A.Turayev BuxDPI tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada boks sporti yo‘nalishida xotin-qizlar, jumladan yosh bokschi qizlar o‘rtasida raqobatning ortib borishi hamda iqtidorli sportchilarni aniqlash masalalari keltirilgan. Shuningdek, bokschi qizlarning raqobatbardosh musobaqa faoliyatini o‘rganish, uni nazorat qilish va baholashning zamonaviy usullari tahlil qilingan hamda tegishli ilmiy-amaliy ma’lumotlar keltirilgan.*

Аннотатция: *В данной статье определены вопросы повышения конкурентоспособности боксеров всех возрастов в спортивном направлении бокса, а также выявления талантливых спортсменов.Представлена информatsiя о контроле и оценке различных методов исследования соревновательной деятельности боксеров*.

Annation: *This article identifies issues of increasing the competitiveness of boxers of all ages in the sports field of boxing, as well as identifying talented athletes.Information is provided on the control and evaluation of various research methods of competitive activity of boxers*.

Kalit so‘zlar: Jangovar, raqobatbardosh, koeffitsient, usul, duell, taktik, obyektiv, parcha , prognoz, ritm, mikro, retro , arsenal, chastota

Ключевые слова: Боевой, конкурентный, коэффициент, снимать, дуэльный, тактика, объектив, парча, прогноз, ритм, микро, ретро, Арсенал, частота.

Key words: Combat, following competition, coefficient, way, duell, tactics, objective, piece, forecast, rhythm, micro, retro, arsenal, frequency,

Mavzuning dolzarbligi.O‘zbekistonda so‘nggi yillarda jismoniy tarbiya va sportni ommaviylashtirish, ayniqsa boks sportini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, boks sportga jalb etish, ularning jismoniy, funksional va psixologik tayyorgarligini rivojlantirish hamda yuqori sport natijalariga erishishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish davlat siyosati darajasida qo‘llab-quvvatlanmoqda. Shu bilan birga, milliy terma jamoalar uchun raqobatbardosh zaxira sportchilarni tayyorlash va ularning xalqaro musobaqalarda munosib ishtirokini ta’minlashga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Zamonaviy sport tizimida raqobatbardoshlikni ta’minlash esa sportchilarni har tomonlama, ya’ni jismoniy, funksional va psixologik jihatdan puxta tayyorlashni talab etadi.Shu nuqtai nazardan, yosh bokschilarni o‘quv-mashg‘ulot jarayoniga ilmiy asoslangan nazorat me’yorlari, samarali mashg‘ulot vositalari va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish, shuningdek ularning yosh, jinsiy va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda kompleks tayyorlash bugungi kunda boks nazariyasi va amaliyotida dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi.[2] Boksda birinchi marta jahonning yetakchi bokschilarining zamonaviy Olimpiya o‘yinlaridagi ishtirokining retro-tahlili o‘tkazganda, bu esa Olimpiya o‘yinlarining kelajagi haqida bashorat qilish imkonini yaratib berdi. Ushbu o‘zaro ta’sir natijasi har bir janglarni kuztib borish va o‘rganishni talab etadi. Mashg’ulot vaqtida yetakchi sportchi bilan zarbalar arsenalini hamda texnik tayyorgarliklarni puxta olib borish ko‘rsatib o‘tilishi lozimBoksda taktik tayyorgarlikni mashg‘ulot vaqtida takrorlashlar soni murabbiy tomondan to‘gri tashkil etilishi hamda takomillashtirish masalalarini tahlil qilib, ushbu mashg’ulot jarayonini aniq tashkil etish va o‘tkazish talab etadi.[3,5].

O‘zbekiston olimlari tomonidan ham boks bo‘yicha ko‘plab ilmiy-metodik ishlanmalar yaratilgan bo‘lib, shu bilan birga, hali o‘rganilishi zarur bo‘lgan masalalar, ya’ni O‘zbekiston terma jamoalariga iqtidorli bokschilarni tanlab olish va sportchilarni jarohatlarsiz oliy sport mahorati bosqichi darajasigacha tarbiyalab yetkazish kabi ko‘plab muammolar mavjud.O‘zbekiston Respublikasida boks sport turini rivojlantirishga qaratilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning “Boks sport turini yanada rivojlantirish chora radbirlari to‘g’risida”gi PQ-5099-sonli qarori bunga asos bo‘ladi.[1]

Tadqiqodning maqsadi: Boks sporti yo‘nalishida shug’ullanuvchi yigit va qizlarni raqobatbardosh faoliyatini o‘rganishning turli usullarini nazorat qilish va baholash iborat.

Tadqiqot vazifasi:

• yoshli bokschi sportida musobaqa faolligi ko‘rsatkichlarini nazorat qilish va baholash mezonlarini ishlab chiqish.

• Bokschilarni raqobat faolligini ko‘rsatkichlarini nazorat qilish va baholashni ishlab chiqish.

• Yosh bokschilarining taktik tayyorgarligini aylanma mashg‘ulotlar yordamida uslubiyatini rivojlantirish va ishlab chiqish,

Tadqiqot natijasi va uni tashkil qilish. Tadqiqot natijalari 2025-yilda Liverpul va Dubay shaharlarida bo‘lib o‘tgan ikki jahon chempionatida O‘zbekiston boks terma jamoasining ishtirok natijalarini tahlil qilishga asoslanadi. Olingan ma’lumotlar sportchilarning natijadorligi, chiqishlar barqarorligi hamda turli xalqaro musobaqa sharoitlaridagi musobaqa faoliyati xususiyatlarini chuqur qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi.

O‘zbekiston terma jamoasi murabbiylar kengashi oldida turgan birinchi va eng muhim ishlardan biri musobaqalardir.Bu sportchilarni maksimal darajada

oldinga qarab, hech bo‘lmaganda sovrinli natijalarni qo‘lga kiritishlarini raqobat nuqtayi nazardan hamda bashorat qilganda ham o‘zbek bokschilari ayni paytda dunyoda yetakchi sportchilar guruhidan o‘rin olgani bemalol aytishimiz mumkin.

Bu borada medallar ko‘rsatkichlari tahlili 2025-yildagi ikki jahon chempionatida O‘zbekiston terma jamoasi ishtirokining natijadorligida sezilarli farqlar mavjudligini ko‘rsatadi. Agar Liverpuldagi turnir oltin medallar soni bo‘yicha eng yuqori natijalarni qayd etib, o‘zbek boks maktabining yetakchi o‘rnini tasdiqlagan bo‘lsa, Dubaydagi jahon chempionatida g‘alabali finallar ulushining kamayishi kuzatilgan, biroq sportchilarning yuqori raqobatbardoshligi saqlanib qolgan. ***(1-jadval)***

O‘zbekiston boks terma jamoasining medal natijalari bo‘yicha qiyosiy tahlil

Turnir	Oltin	Kumush	Bronza	Jami medallar	Jamoa o‘rni
Liverpul (Angliya)	6	2	3	11	1
Dubay (BAA)	2	4	3	9	3

Shunungdek buni eng muhim ikki jahon chempionati natijalarining qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, yakuniy xulosalar shuni ko`rsatdiki, sport formasi darajasiga ega bo‘lishi va maxsus jismoniy tayyorgarlikning yuqori darajasi ko‘rsatkichlardagi farqlar tayyorgarlik darajasining pasayishi bilan emas, balki musobaqa sharoitlarining o‘zgarishi va Olimpiya tsiklining muayyan

bosqichidagi strategik vazifalar bilan tavsiflanadi. Bunday sharoitda nafaqat texnik ko‘nikmalar, balki taktik fikrlash, vaziyatga moslasha olish qobiliyati va psixologik barqarorlik hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan.O‘zbekiston terma jamoasining yetakchi sportchilari musobaqa faoliyatini individual tahlil qilish ularning yuqori texnik mahorati saqlanib qolayotganini ko‘rsatdi, biroq ayrim xususiyatlar ham aniqlandi. Ayrim bokschilarda final janglarining so‘nggi raundlarida faollikning pasayishi kuzatilib, bu maxsus chidamkorlikni rivojlantirishga qo‘shimcha e’tibor qaratish zarurligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, taktik qarorlarning xilma-xilligini namoyon etgan va jang jarayonida o‘z uslubini o‘zgartira olgan sportchilar barqarorroq natijalarga erishgan.

Xulosa sifatida ta’kidlash mumkinki, zamonaviy boksda sportchilarning texnik-taktik tayyorgarligini rivojlantirish va mashg‘ulot jarayonini optimal tashkil etish hujum harakatlari samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, individual yondashuv va videotahlil usullarini qo‘llash sportchilar faoliyatini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega. Biroq taklif etilgan yechimlar muayyan cheklovlarga ega bo‘lib, ularni yanada ilmiy asoslash va keng qamrovli tadqiqotlar orqali aniqlash talab etiladi**.**

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2021-yil 29-aprel “Boks sport turini yanada rivojlantirish chora radbirlari to‘g’risida”gi PQ-5099-sonli qarori www.lex.u
2. Abdiev, A.N. Individual darsda trener maxoratining asoslari. //Monografiya, UzGIFK, 2000. - 169 bet.
3. Klimov Ye.A. Individualnixy stil deyatelnosti.-Vkn.: Psixologiya individualnix razlichiy Pod red. Yu.B.Gippenreytera, V.Ya.Romanova. M., 1982, s. 74—77.

4. Merlin V.S. Ocherk integralnogo issledovaniya individualnosti. M., 1986. S. 153—180.b.

5. Soxa T. Metodologiya sovershenstvovaniya pedagogicheskix sistem sportivnoy podgotovki jenщin v aspekte polovogo dimorfizma. – Diss. na soisk. uchen.stepeni d-ra ped. nauk. – SP g, 2002. – 268 b